

## IX. KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK




### FAOLIYAT YURITAYOTGAN KICHIK TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI TAHLILI


**Tadbirkorlik faoliyati (kichik tadbirkorlik)** – tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, o‘zi tavakkal qilib va o‘z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foйда) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir.

Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 2026- yilning 1-yanvar holatiga 15 208 tani tashkil etdi. (2025 yilning shu davriga nisbatan 12,4 % ga ko‘paydi)..

#### Viloyatda faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni dinamikasi (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz) (birlikda)



2026- yil 1-yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz) soni jami 15 208 tani, shundan yangi tashkil etilganlari 3 586 tani tashkil etdi. Hududlar bo‘yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng ko‘pi Jizzax shahrida 4 179 tani (yoki jamiga nisbatan 27,5 %) ni, Sharof Rashidov tumanida 2 371 tani (15,6 %) va G‘allaorol tumanida 1 325 tani (8,7 %) ni tashkil qildi.



**Yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari sonining  
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi**  
2025- yilning yanvar-dekabr oylarida (jamiga nisbatan % da)  
(dehqon va fermer xo'jaliklarisiz)

2023-yil




2025- yilning yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining **YaHM**dagi ulushi 71,2 % ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har **1 000** aholiga 9,7 birlikni tashkil qildi.

2025-yilning yanvar-dekabr oylarida 3 586 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu ularning soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan 770 taga (17,7 % ga) kamayganligini ko'rsatmoqda.

*2025- yilning yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, % da*

2024-yil



*Savdo*




*Sanoat*



*Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi*




*Qurilish*



*Boshqalar*



2025-yil



## Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi

Eng ko'p kichik biznes subyektlari savdo (jami tashkil etilgan subyektlarning 32,8 %), sanoat sohasida (12,2 %), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'ida (22,7 %), qurilishda (5,4 %) va boshqa sohalarda (26,9 %) tashkil etilgan..

2025- yilning yanvar-dekabr oylarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan:

– o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 18 601,1 mlrd so'mni (umumiy investitsiyalar hajmidagi ulushi 74,7 %), o'sish sur'ati esa 2024-yilning mos davriga nisbatan 142,0 % ni tashkil qildi;

– qurilish ishlari hajmi 6 741,7 mlrd so'mni (qurilish ishlari umumiy hajmidagi ulushi 83,9 %) va 2024 yilning yanvar-dekabriga nisbatan o'sish sur'ati 110,6 % ni tashkil qildi;

– sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 9 252,3 mlrd so'mni (jami sanoat ishlab chiqarishining ulushi 26,2 %) tashkil qildi;

– ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 17 932,2 mlrd so'mni tashkil qilib, (jami xizmatlar hajmidagi ulushi 72,9 %) 2024 yilning yanvar-dekabriga nisbatan 113,2 %ga o'sdi;

– chakana tovar aylanmasi 3 954,0 mlrd so'mni (jami chakana tovar aylanmasining 30,2 %) 2024 yilning yanvar-dekabriga nisbatan o'sish sur'ati 109,2 % ni tashkil qildi;

– tovarlar eksport hajmi 215,1 mln. AQSH dollari (umumiy eksport hajmining 79,0 %) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) eksport qilindi, tovarlar import hajmi 388,5 mln. AQSH dollari (umumiy import hajmining 23,9 %) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) import qilindi;


– avtomobil transportida 28 169,8 ming tonna yuk tashilib (jami avtomobil transporti yuk tashishdagi ulushi 100,0 %) 2024 yilning yanvar-dekabriga nisbatan o'sish sur'ati 107,1 % ni tashkil qildi;

– avtomobil transportida 34 289,4 ming yo'lovchi tashilib (umumiy yo'lovchi tashishdagi ulushi 100,0 %) 2024 yilning yanvar-dekabriga nisbatan o'sish sur'ati 105,8 % ni tashkil qildi;

2025- yilning yanvar-dekabrida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning YaHMdagi ulushi – 71,2 % ni, sanoatda – 26,2 % ni, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 93,5 % ni, qurilishda – 83,9 % ni, tashqi savdo aylanmasida – 31,8 % ni tashkil qildi.


## Viloyat bo'yicha kichik tadbirkorlikda iqtisodiy tarmoqlar kesimida ishlab chiqarishning asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

**2025- yilning yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi**



Jizzax viloyati bo'yicha yuqori sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Jizzax shahri (3 457,8 mlrd so'm), Sharof Rashidov (907,4 mlrd so'm) va Forish (737,6 mlrd so'm) tumanlarida kuzatildi.

**2025- yilning yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va o'sish sur'ati**



Jizzax viloyati bo'yicha yuqori xizmatlar hajmi Jizzax shahri (3 642,3 mlrd so'm), Sharof Rashidov (1 667,6 mlrd so'm), G'allaorol (961,3 mlrd so'm) va Zomin (869,8 mlrd so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

**2025- yilning yanvar-dekabr oylarida viloyat iqtisodiyotida  
kichik tadbirkorlikning hududlar bo'yicha ulushi, % da**

	<i>Sanoat</i>	<i>Qurilish</i>	<i>Xizmatlar</i>	<i>Qishloq xo'jaligi</i>
<b>Jizzax viloyati</b>	<b>26,2</b>	<b>83,9</b>	<b>72,9</b>	<b>93,5</b>
<i>shahar:</i>				
Jizzax	32,1	83,1	47,7	98,7
<i>tumanlar:</i>				
Arnasoy	90,6	87,2	77,4	88,4
Baxmal	99,0	93,0	69,8	98,8
G'allaorol	1,7	93,9	65,5	97,7
Sharof Rashidov	78,4	76,7	85,7	98,8
Do'stlik	13,2	91,6	70,9	99,2
Zomin	49,3	78,7	71,8	91,8
Zarbdor	82,3	95,9	72,5	86,9
Zafarobod	11,1	54,8	76,1	84,9
Mirzacho'l	34,2	92,3	60,9	79,1
Paxtakor	25,3	83,0	61,8	85,3
Forish	41,6	94,6	83,7	99,2
Yangiobod	99,5	84,8	72,3	99,4

Joriy yilning yanvar-dekabr oylarida viloyatda kichik tadbirkorlikning iqtisodiy ko'rsatkichlari sohalar bo'yicha tahlil qilinganida:

- sanoat tarmog'ida kichik tadbirkorlikning kam ulushi G'allaorol (1,7 %) tumani hissasiga, yuqori ulushlar esa Baxmal (99,0 %), Yangiobod (99,5 %) va Arnasoy (90,6 %) tumanlariga to'g'ri keldi.

- qurilish tarmog'ida kichik tadbirkorlikning kam ulushi Zafarobod (54,8%), Zomin (78,7 %), Sharof Rashidov (76,7 %) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

- xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning yuqori ulushlari Sharof Rashidov (85,7 %) va Forish (83,7 %) tumanlariga hissasiga to'g'ri keldi.

- qishloq xo'jaligi tarmog'ida viloyat miqyosida yaratiladigan qo'shimcha qiymatning asosiy qismi kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirildi.